

Janubiy O'zbekistonning Bronza Davri Madaniy O'simliklari

Jabborova Z.

TerDU magistranti

Dolzarbligi: Maqolada so'nggi yillarda arxeologik yodgorliklarda aniqlanayotgan o'simlik urug'lari o'rganildi. Sopollitepa, Jarqo'ton, Burguttepa, Kayrittepa yodgorliklaridan topilgan o'simlik urug'lari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Tut daraxti, paxta chigiti, uzum, sandal daraxti haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Paleobotanika, Jarqo'ton, Kayrit, tut, paxta, uzum, sandal daraxti.

Janubiy O'zbekiston hududi bronza davri aholisi kundalik turmush tarzi, ziroatchiligi, chorvachiligi, antropologiyasi, paleoekonomikasi hamda paleoekologiyasini o'rganishda arxeobotanika (paleobotanika) materiallarining o'rni muhimdir. Tan olib aytishimiz lozimki, qaysi davrga o'rganilishidan qat'iy nazar yurtimizda paleobotanika sohasi yaxshi rivojlanmagan ammo mazkur soha yaqin yillarda, xalqaro tadqiqot markazlari bilan olib borilayotgan ekspeditsiyalar orqali bosqichma-bosqich, yangi yo'nalish sifatida o'rganila boshlandi.

Sopoli madaniyati yodgorliklari, xususan Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida, shuningdek, ilk temir davrining Kuchuk I madaniyati yodgorliklari bo'lgan Burguttepa, Kayrittepa yodgorliklarida Termiz davlat universiteti, Fransiyaning Milliy ilmiy tadqiqot markazi (CNRS), Chexiyaning Karlova universiteti, Xitoyning Shimoli-G'arbiy universiteti (Sian) so'ngi yillarda arxeologik tadqiqotlar doirasida paleobotanik ilmiy o'rganish, tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Eramizdan oldingi 2 - ming yillik boshidan to oxirigacha bo'lgan davr paleobotanikasi o'rganilib shu narsa aniq bo'ldiki, bronza davrida Baqtriya Marg'iyona hududi yodgorliklarida ziroatchilik, bog'dorchilik, dehqonchilik, sun'iy sug'orish sohalari rivoj topgan manzillar soni ko'p bo'lgan. Mazkur yodgorliklarda istiqomat qilgan aholi turli navdagi boshqoqli, donli, meva-sabzavot kabi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishgan. Yovvoyi boshqoqli ekinlarning ba'zi turlari madaniylashtirila boshlagan.

Arxeologik qazuv ishlari jarayonida bronza va ilk temir aholisi tomonidan yetishtirilgan tut daraxti, uzum, ipak, bug'doy, arpa, tariq, dukkakli o'simliklar, paxta urug'lari ko'plab topilgan. Ushbu urug' donalari kimyoviy taxlil tekshirish laboratoriyalarida tekshirilib, ularning qaysi o'simlik urug'i yoki poyasi ekanligi, qaysi navga oid ekanligi, DNK taxlili, radiokarbon taxlil sanasi (yil xisobida) aniqlangan. Quyida biz bronza davri aholisi tomonidan yetishtirilgan madaniy o'simliklar haqida so'z yuritamiz.

Tut daraxti va ipak. Tut daraxti hozirgi va qadimgi jamiyat iqtisodiyotida katta ahamiyatga egadir. Qadimgi Xitoy adabiyotida tut va ferma odatda yonma-yon ishlatiladigan jumla sanalgan. Xuddi shunday Baqtriya o'lkasi o'z ichiga olgan O'zbekistonning janubiy hududlari, Afg'oniston shimoli, Turkmanistonning qadimgi Marg'iyona hududlarida ham tut daraxti katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, bundan 2200 yil avval ipak Xan sulolasi davrida Xitoyda yetishtirilgan va O'rta Osiyo, so'ngra Yevropaga Shinjon hududi orqali kirib kelgan. Lekin moddiy ashyoviy manbalar shuni ko'rsatmoqdaki, ipak Xitoydan boshqa hududlarda, Xan sulolasidan avval yetishtirilgan. Sopollitepa aynan O'rta Osiyo mintaqasidagi, Janubiy O'zbekistonda joylashgan,

Oks sivilizatsiyasining bir bo'lagi bo'lgan dastlabki qadimgi yuqori darajadagi ziroatchilik madaniyati markazlaridan biridir.

Sopolli madaniyati yodgorligi sanalgan Sopollitepa qazishmalari davomida ipak qoldiqlari topilishi bu hududda ipak mavjud bo'lganini bildiradi, lekin ipak mazkur hududda yetishtirilgani yoki boshqa hududdan olib kelinganligi nomalum edi. 3 ta hududdan tut daraxtini topilishi, oxirgi 50 yil ichida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'zbekiston janubida, Afg'oniston shimoli va Mug'rob vohasida bundan 4000 yil avval bu tut daraxtlari ipak qurti uchun ozuqa sifatida yetishtirilganmi yoki yovvoyi sharoitda o'sgan daraxt ekanligini aniqlash O'rta Osiyoda qadimda ipakchilikni kelib chiqishini aniqlashda juda katta ahamiyatga ega.

Mazkur yechimini kutayotgan topilmalarni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida 2017 yil O'zbekiston arxeologik tadqiqotlar instituti va Xitoy umurtqali hayvonlar va paleoantologiya instituti bilan hamkorlikda "O'zbekiston qishloq xo'jaligi vujudga kelgan hudud, evolutsiya va iqlimga moslashish" nomli tadqiqot mavzusida ilmiy tadqiqot va qazuv ishlari olib borildi.

Sopollitepa topilmalari qadimgi aholi manzilgohi odamlarining kiyimlari haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Sopollitepada o'rganilgan 1, 14, 35 qablardan mato bo'laklari topilgan va ular to'q rangga, asosan qizil tusga kirib qolgan. Ushbu topilmalar Toshkent tekstil institutida akademik Xadjinova tomonidan tekshirilgan.

Paxta. Sopollitepa aholisi jun, paxta va ipakdan to'qilgan matodan kiyim kiygan. Asosiy tikish vazifasini bronzadan yasalgan ignalar o'tagan. Matolarga tosh tugmalar va bronza to'g'nog'ichlar qadalgan. Sopollitepaning 149, 25, 26 va 42 xonalarida katta bo'lmagan qazishma ishlari olib borildi. 149 xonaning 2 qurilish davridan qishloq xo'jaligida foydalanilgan urug'lar topildi. 25 xonadan esa paxta chigiti topildi va bu xona katta ehtimol bilan paxta saqlash xonasi bo'lgan. 26 xonadan ham qimmatli paleobotanik namunalar topildi: chigit, yovvoyi o'simliklar urug'i va meva urug'lari topildi. Barcha paleobotanik namunalar 30-50 sm qalinlikdagi qatlamlardan olindi va mazkur qazuv ishlari natijasida bug'doy, arpa, tariq, no'xat, paxta, tut daraxti qoldiqlari, pilla lichinkalari, jiyda, bodom, uzum va anjir urug'lari topildi¹.

Topilgan paxta chigitini "Genomika va bioinformatsiya markazi" laboratoriyasida prof. Z.Bo'riyev tomonidan tekshirildi va mazkur chigitning tashqi ko'rinishi "Guzi" navli chigitga o'xshashligi aytilgan lekin chigitning ichki qismi kuyganligi sabab uning DNK analizi olinmadi va aniq qaysi paxta navi ekanligi nomalumligicha qoldi.

Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari xulosasiga ko'ra O'rta Osiyo ham qadimgi Misr va Hindiston kabi paxta yetishtiruvchi ziroatchilik madaniyati rivojlangan hudud ekanligi aniq bo'ldi. Ipak matosi qoldiqlari, tut daraxti bo'laklari va ipak qurti lichinkasi topilishi esa O'zbekistonda qadimda ipakchilik mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.


Uzumchilik (1-расм). Sopollitepa qazishmalarida uzum, jiyda urug'lari va ezilgan bug'doy saqlangan idishning ostki qismidan birga topilgan. Va ushbu topilmalarga A. Asqarov sopollitepaliklar "qandaydir bo'zaga o'xshash ichimlik" tayyorlashgan deya - ta'rif bergan².

O'zbekiston janubida bronza davrida metalsozlik, kulolchilik, to'quvchilik, toshga ishlov berish kabi sohalar bilan bir qatorda mast qiluvchi ichimlik – sharob(vino) tayyorlash ham urf bo'lgan. Jarqo'ton olov ibodatxonasining g'arbiy, ya'ni xo'jalik qismidan pol qismi oqish gipsga o'xshash material bilan suvalgan, yirik xumlar joylashtirilgan 2 ta xonalar topilgan. Mazkur 9 va 11 raqamli xonalar vinoga o'xshash ichimlik tayyorlashga mo'ljallangan³.

¹ Аскарлов А, Жоу Синг, М. Хасанов. Производство тутового дерева и шелка, хлопка, садоводства и колосовых культур на юге Узбекистана в период древневосточной цивилизации Окса // Археология Узбекистана, № 21, Самарканд, 2020. Стр 47.

² Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент. «Фан». Ташкент, 1977. Стр. 151.

³ Ширинов Т. «Винодельня» Джаркутана – памятник эпохи бронзы юга Узбекистана // ИМКУ, выпуск 24. Ташкент, 1990. Стр. 18.



1 расм. Палеоботаник тадқиқот. Узум уруғлари қолдиғи.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, vinoga o'xshash mast qiluvchi ichimlik asosan Sopolli madaniyatining Ko'zali boshqichidan boshlab tayyorlanilgan. Katta ehtimol bilan vino tayyorlashda uzumning ma'lum bir navidan foydalanilgan. Jarqo'ton olov ibodatxonasi g'arbiy qismidagi 11-xona vino (somo xauma) tayyorlanadigan xona bo'lgan.

Sandal daraxti. Eneolit va bronza ibodatxonalarida altarlarda hushbo'y hid taratuvchi sandal daraxti novdalari yoqib tutatilgan⁴.

Ma'lumki, sandal daraxti marjon o'tdoshlar oilasiga mansub doim yashil o'simlik. Bo'yi 10 m, aylanasi 1-2 janubiy Hindistonning tropik qismlarida o'stiriladi. Poya va ildizida atirupa sanoatida ishlatiladigan 3-6% efir moylari bor. Yog'ochi har xil maqsadlarda ishlatiladi⁵.

Ushbu daraxtni Qadimgi Baktريا hududida o'smasligini va bu turdagi daraxt o'tinni Janubiy Hindistondan o'tirib keyingi davrlardagi karvonlar savdosida alohida e'tibor qaratilgan haqida ma'lumotlar mavjud⁶.

Bug'doy va arpa (2 - rasmlar). Bronza davri ziroatchiligini bug'doy va arpa ekinlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta. Baktريا hududi yodgorliklari atrofida yirik hajmdagi sug'orish dalalari bo'lgan va ushbu plantatsiyalarda asosan boshqoqli ekinlar ekinlar ekilgan. Arxeologik tadqiqotlar doirasida olib borilgan arxeobotanik tekshirish ishlari natijasida janubiy Turkmaniston, shimoliy Afg'oniston va O'zbekistonning janubiy hududlari bronza davri yodgorliklaridan topilgan boshqoqli ekinlar maxsus tekshirilmogda.



2 расм. Палеоботаник тадқиқот. Буғдой уруғлари.

Xususan, Gonur-depe, Anov (Turkmaniston) va Jarqo'ton (O'zbekiston)dan topilgan bug'doy, arpa, uzum va boshqalar ming yillikgacha bo'lgan davr (eneolit-bronza) oralig'ida yetishtirilgan donli va mevalarning urug'lari tekshirildi⁷. Jarqo'tondan topilgan urug'larning ko'pchiligi axlat (chorva tezagi)dan va

⁴ Ширинов Т. Алтари огня из храма Джаркутана — памятника эпохи развитой бронзы юга Узбекистана // ИМКУ, выпуск 23. Ташкент, 1990.

⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7 том. 2004. 486 б.; Энциклопедик луғат. 2 том. 1990. 159 б.

⁶ Раҳимов К. Бактриянинг бронза даври оташгоҳлари хусусида мулоҳазалар // ИМКУ, выпуск 39. Самарканд, 2015.

⁷ Naomi F. Miller. Agricultural development in western Central Asia in the Chalcolithic and Bronze Ages. Vegetation History and Archaeobotany © Springer-Verlag 1999. P. 12

oziq-ovqat maxsulotlari chiqindisidan flotatsiya metodi orqali ajratib olingan. Urug'larda kuyish holati ham kuzatilgan⁸.

Pista. Qazishmalar davomida Jarqo'tondan pista qobig'i topilgan. Pista tog' va o'rmon o'simligi bo'lib, ehtimol O'rta Osiyoda ilk bora yetishtirilgan. Eron hududidagi Tepe Yahyoni hisobga olmaganda Jarqo'tondan topilgan pista qoldiqlari O'rta Osiyo bronza davri bo'yicha yagona sanaladi. Pista klassik davrgacha Yaqin Sharqqa no'malum meva sanalgan. Bronza davrida pista yetishtirilgan yoki tabiatdan tabiiy ravishda terib olingan bo'lishi mumkin⁹.

Boshqa turdagi o'simliklar. Jarqo'tondan yana boshqa meva donaklari topilgan. Sopollitepadan esa jiyda, bodom danaklari, shuningdek uzum va anjir mevalari urug'lari, boshqoqli ekinlardan bug'doy, arpa, tariq, garox urug'larini topilishi O'zbekiston hududida qadimgi bronza davrida bog'dorchilik va dehqonchilik yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi¹⁰.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аскарлов А, Жоу Синг, М. Хасанов. Производство тутового дерева и шелка, хлопка, садоводства и колосовых культур на юге Узбекистана в период древневосточной цивилизации Окса // Археология Узбекистана, № 21, Самарканд, 2020. Стр 47.
2. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент. «Фан». Ташкент, 1977. Стр. 151.
3. Ширинов Т. «Винодельня» Джаркутана – памятник эпохи бронзы юга Узбекистана // ИМКУ, выпуск 24. Ташкент, 1990. Стр. 18.
4. Ширинов Т. Алтари огня из храма Джаркутана — памятника эпохи развитой бронзы юга Узбекистана // ИМКУ, выпуск 23. Ташкент, 1990.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7 том. 2004. 486 б.; Энциклопедик луғат. 2 том. 1990. 159 б.
6. Раҳимов К. Бактриянинг бронза даври оташгоҳлари хусусида мулоҳазалар // ИМКУ, выпуск 39. Самарканд, 2015.
7. Naomi F. Miller. Agricultural development in western Central Asia in the Chalcolithic and Bronze Ages. Vegetation History and Archaeobotany © Springer-Verlag 1999. P. 12

⁸ Naomi F. Miller. Agricultural development in western Central Asia in the Chalcolithic and Bronze Ages. Vegetation History and Archaeobotany © Springer-Verlag 1999. P. 13

⁹ Naomi F. Miller. Agricultural development in western Central Asia in the Chalcolithic and Bronze Ages. Vegetation History and Archaeobotany © Springer-Verlag 1999. P. 18.

¹⁰ Аскарлов А, Жоу Синг, М. Хасанов. Производство тутового дерева и шелка, хлопка, садоводства и колосовых культур на юге Узбекистана в период древневосточной цивилизации Окса // Археология Узбекистана, № 21, Самарканд, 2020. Стр 47.